

Chegarasiz qulaylik: Endi UnionPay kartalari orqali to'lovlar Uzbekistan Airways sayti va ilovasida mavjud!

2025 25 Noyabr

Uzbekistan Airways butun dunyo yo'lovchilari uchun aviachiptalarni xarid qilish jarayonini imkon qadar qulay va foydalanish oson bo'lgan holga keltirish maqsadida raqamli xizmatlarni takomillashtirishni davom ettirmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan ma'lum qilamizki, endi rasmiy saytimizda va Uzbekistan Airways ilovasida UnionPay kartalari bilan to'lash imkoniyati paydo bo'ldi! Bu xalqaro mijozlarimiz uchun moliyaviy imkoniyatlar va qulayliklarni kengaytirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Eslatib o'tamiz, sizning qulayligingiz uchun barcha asosiy to'lov tizimlari: UzCard va Humo, shuningdek, Visa, MasterCard va MHP xalqaro kartalari to'lovga qabul qilinmoqda.